

JOURNAL OF NATURAL SCIENCE

№ 2 (7) 2022 <http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош муҳаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова, PhD, доц.</p> <p>Масъул котиб- Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none">1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.2. Шилова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор6. Абдурахмонов Э.А.–СамДУ к.ф.д., профессор7. Насимов А.М.–СамДУ к.ф.д., профессор8. Сманова З.А.-ЎзМУ к.ф.д., профессор9. Тошев А.Ю.- ТТЕСИ к.ф.д, доцент10. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д, доц11. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.12. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.13. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф14. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.15. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц16. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.17. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц18. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.19. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)20. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц21. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)22. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц23. Муминова Н- ЖДПИ к.ф.н., доц24. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц25. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**BO'YMODARON (herba millefol II) YERUSTKI QISMINING
TABOBATDA QO'LLANILISHI**

Qurbanova Latofat Mamadiyorovna

Jizzax politexnika instituti

Qurbanova Lobar Mamadiyorovna

Zomin Abu Ali ibn Sino nomli jamoat salomatligi texnikumi

gmail:latofatqurbonova@gmail.com

Annotatsiya: O'simlikning dorivor hususiyatlari me'da-ichak yarasi, shilliq qavatning yallig'lanish kasalliklarini davolashda, ishtaha ochuvchi va qon to'xtatuvchi dori sifatida ichakdan, bachadondan qon oqishi, burun, milk va yaralar qonaganda uni to'xtatish uchun hamda shu kabi kasalliklarni davolashda ishlatilishi yoritilgan.

Kalit so'z: qalqonsimon gul, lansetsimon, chiziqsimon, vitaminlar, alkaloidlar, efir moyi, xolin, asparagin, smola, oshlovchi, achchiq tuyon, kamfora, borneol, sineol, kislotalar.

Annotation: Medicinal properties of the plant in the treatment of gastrointestinal ulcers, inflammatory diseases of the mucous membranes, as an anticoagulant and hemostatic drug to stop bleeding from the intestine, uterus, nose, gums and wounds, as well as similar diseases to be used in treatment.

Keywords: thyroid flower, lanceolate, linear, vitamins, alkaloids, essential oil, choline, asparagine, resin, astringent, bitter gourd, camphor, borneol, sineol, acids.



Dorivor preparatlari suyuq ekstrakt, damlama, yerustki qismi kukuni sifatida bo'ladi. Oddiy bo'ymodaron — *Achillea millefolium* L.; astradoshlar — Asteraceae (murakkab guldoshlar — Compositae) oilasiga kiradi. Ko'p yillik, bo'yi 20—50 (ba'zan 80) sm ga yetadigan o't o'simlik. Ildizpoyasi shoxlangan bo'lib, yerostki novda hosil qiladi. Sunday novdadan ildiz oldi barglar va poyalar o'sib chiqadi. Poyasi bir nechta, tik o'suvchi, yuqori qismi shoxlangan bo'lib, ular qalqonsimon gul to'plamlari bilan tamomlanadi. Bargi oddiy, ikki marta patsimon ajralgan bo'lib, poyada bandsiz ketma-ket o'rnashgan. Gullari savatchaga to'plangan. Savatchalar o'z navbatida qalqonsimon to'p gulni tashkil etadi. Mevasi — yassi, tuxumsimon, kulrang pista, iyun oyidan boshlab yoz oxirlarigacha gullaydi, mevasi avgustdan boshlab yetiladi.

Geografik tarqalishiga keladigan bo'lsak o'simlik keng tarqalgan bo'lib, o'rmon, o'rmon-cho'l va cho'l hududlarida hamda tog'li tumanlarda (tog' etaklaridagi

tekisliklarda, tog' yonbag'irlarida) ochiq yalangliklarda va quruq o'tloqlar, qirlar, yo'l yoqalari, o'rmon chetlari va boshqa yerlarda o'sadi.

Mahsulot tayyorlash. O'simlik gullaganida (poyasining yuqori qismidan gul va barglari bilan birga) o'roq bilan o'rib olinadi. Ba'zan ildizoldi to'pbarglar alohida yig'iladi. Soya yerda quritiladi.

Mahsulotning tashqi ko'rinishi tayyor mahsulot o'simlikning yerustki qismidan (poyaning yuqori qismidan, bargdan va gul to'plamlaridan hamda ba'zan ildizoldi to'pbarglardan) iborat. Poyasi biroz qirralli, siyrak bargli, kulrang-yashil bo'lib, uzunligi 15 sm. Bargi tukli, kulrang-yashil, ikki marta patsimon ajralgan. Barcha plastinkasining bo'lagi (segmenti) lansetsimon yoki chiziqsimon bo'lib, 3—5 juft tishli bo'lakchaga -qir qilgan. Gullari savatchaga to'plangan. Savatchalar, o'z navbatida, qalqonsimon to'p gulni tashkil etadi. Savatcha mayda, tuxumsimon, 3—4 mm uzunlikda bo'lib, tashqi tomonidan o'rama barg bilan qoplangan. Savatcha chetidagi gullar oqish, ba'zan och pushti rangli, tilsimon, o'rta-sidagi gullari esa naychasimon. Mahsulotning o'ziga xos xushbo'y hidi va achchiq mazasi bor.

Kimyoviy tarkibi jihatidan mahsulot tarkibida karotin, K va C vitaminlar, alkaloidlar, 0,8% gacha efir moyi, xolin, asparagin, smola, oshlovchi, achchiq va boshqa moddalar bo'ladi. XI DF ga ko'ra mahsulot tarkibidagi efir moyining miqdori 0,1% dan kam bo'l-masligi kerak. Efir moyi tarkibida 1—4% gacha xamazulen (asosiy qismi), tuyon, kamfora, borneol, 10% gacha sineol va kislotalar bor.

Dorivor preparatlari suyuq ekstrakt, damlama, yerustki qismi kukuni sifatida bo'ladi. Mahsulot ishtaha ochish, qon oqishini to'xtatish va me'da-ichak kasalliklarida ishlatiladigan yig'ma-choylar tarkibiga kiradi.

Mahsulotning dorivor preparatlari me'da-ichak (me'da yarasi, gastrit hamda shilliq qavatning yallig'lanish) kasalliklarini davolash, ishtaha ochish va qon to'xtatuvchi dori sifatida (ichakdan, bachadondan va gemorroidal qon oqishi hamda burun, milk va yaralar qonaganda uni to'xtatish uchun) ishlatiladi. Dorivor o'simlik choy kabi damlama qilinib iste'mol qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nabiyev M. Muxtarov M. M. Turkona davo va soda muolajalar. Ibn Sino Toshkent. 2003.
2. Hamidjon Zohidov "Shifo xazinasi" I.II.III tom Toshken, Yangi asr avlodi, 2004.
3. Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" 2-kitob. Toshkent 1992 yil.
4. Madraxhimov A.S. Ibn Sino shifobaxsh o'simliklar haqida "Mehnat", Toshkent 1990 y.
5. Qurbanova L.M., Qurbanova L.M. Achchiq toron (Herba poligoni hydropiperis) giyohining tabobatdagi ahamiyati.//Zamonaviy taraqqiyotda ilm-fan va madaniyatning o'rnini. www.academic.uz. 20.02.2022 14-son. 112-112 b.

6. Qurbanova L.M., Qurbanova L.M. Dalachoy (hypyericum pyerforatu) dorivor giyohining xalq tabobatida qo'llanilishi. //Zamonaviy taraqqiyotda ilm-fan va madaniyatning o'rni. www.academic.uz. 20.02.2022 14-son. 115-117 b.
7. L.M.Qurbanova, D.N.Qurbonova. //Zomin shifobaxsh o'simliklarining hususiyatlari. “Journal of Natural Sciences” №3 2021 y.154-157 b. <http://natscience.jspi.uz>